



XORAZM BOLALAR FOLKLORI JANRLARINING LISONIY O'ZIGA XOSLIKLARI

Azatova Guliston

Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm bolalar folklori janrlarining lisoniy tabiati, uning dialektal asosi va badiiy-estetik vazifalari yaxlit ilmiy tahlil obyekti sifatida o'rganiladi. Tadqiqotda hududiy folklor namunalari o'zbek tili lahjalari tizimidagi o'rni, xususan, og'uz va qipchoq shevalarining leksik-semantik hamda fonetik ta'siri yoritilgan. Maqola davomida alla, sanama, o'yin qo'shiqlari va tez aytishlar misolida til birliklarining bolalar nutqiy madaniyatini shakllantirishdagi o'rni lisoniy faktlar orqali isbotlanadi.

Аннотация: В данной статье исследуется лингвистическая природа жанров хорезмского детского фольклора, его диалектальная основа и художественно-эстетические функции как объект комплексного научного анализа. В исследовании подчеркивается роль региональных фольклорных образцов в системе узбекских диалектов, в частности, лексико-семантическое и фонетическое влияние огузского и кипчакского диалектов. На протяжении всей статьи роль языковых единиц в формировании детской речевой культуры доказывается на лингвистических фактах на примере аллы, санамы, игровых песен и быстрых поговорок.

Annotation: This article studies the linguistic nature of the genres of Khorezm children's folklore, its dialectal basis and artistic and aesthetic functions as an object of integrated scientific analysis. The study highlights the role of regional folklore samples in the system of Uzbek dialects, in particular, the lexical-semantic and phonetic influence of the Oguz and Kipchak dialects. Throughout the article, the role of language units in the formation of children's speech culture is proven through linguistic facts, using the example of alla, sanama, game songs and quick sayings.

Kalit so'zlar: Xorazm bolalar folklori, lingvofolkloristika, dialektologiya, og'uz lahjasi, leksik qatlam, fonetik transformatsiya, alla, sanama, lingvistik tahlil.

Ключевые слова: хорезмский детский фольклор, лингвистический фольклор, диалектология, огузский диалект, лексический слой, фонетическая трансформация, алла, санам, лингвистический анализ.

Keywords: Khorezm children's folklore, linguistic folklore, dialectology, Oghuz dialect, lexical layer, phonetic transformation, alla, sanama, linguistic analysis.

Xalq og'zaki ijodi har bir millatning o'zligini, tili va madaniyatini asrlar davomida saqlab keluvchi bebaho xazinadir. Bu xazinaning eng begubor va lisoniy jihatdan qiziqarli qismi bo'lgan bolalar folklori, xususan, Xorazm bolalar folklori o'zining hududiy o'ziga xosligi va qadimiy turkiy qatlamga yaqinligi bilan ajralib turadi. Xorazm vohasi o'zbek



xalqi shakllanishida muhim o‘rin tutgan og‘uz, qipchoq va qarluq-chigil lahjalarining o‘zaro sintezi natijasida shakllangan o‘ziga xos lingvistik hududdir. Bu holat bevosita bolalar folklori janrlarida ham o‘z in‘ikosini topgan. Maqolaning maqsadi Xorazm bolalar folklorining lisoniy manzarasini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish va undagi dialektal birliklarning badiiy vazifasini ochib berishdan iborat [2].

Xorazm bolalar folklori namunalarini fonetik nuqtayi nazardan kuzatganimizda, adabiy til me‘yorlaridan farq qiluvchi, ammo folklor matni uchun zarur bo‘lgan musiqiylik va ritmni ta‘minlovchi hodisalarga duch kelamiz. Eng avvalo, bu yerda “Y”lashish hodisasi (ya‘ni, “h” tovushining “y”ga almashishi) matnning lirik ohangini yumshatishga xizmat qiladi [3]. Masalan “rahm” o‘rniga “rayim”, “mehmon” o‘rniga “meymon” shakllarining ishlatilishi bolaning tili chiqish jarayonidagi fiziologik qulaylikka ham mos keladi. Shuningdek, Xorazm shevasiga xos bo‘lgan unlilar uyg‘unligi yoki singarmonizm hodisasi sanamalarining ichki ritmini ta‘minlovchi asosiy omildir. Masalan:

Bir, ikki,
Kimni yuki,
Tozi daroz,
Rangi sovuq,
Qizil xo‘roz,
Malla tovuq,
Jingirdovuq...[1]

Sanamalarda tovushlarning bir-biriga moslashishi, bo‘g‘inlardagi qat‘iy izchillik bolada fonetik eshitish qobiliyatini va artikulyatsiyani rivojlantiradi [5].

Leksik-semantik jihatdan Xorazm bolalar folklori juda boy va rang-barangdir. Unda qo‘llanilgan so‘zlarning katta qismini hududiy dialektizmlar tashkil etadi. Masalan, “michchi” (kichkina), “solma” (ariq), “mozzi” (shirin) kabi so‘zlar bolaning lug‘at boyligini o‘zi tug‘ilib o‘sgan muhitga mos ravishda shakllantiradi [4]. Ayniqsa, mavsumiy-marosim folklorida (yomg‘ir chaqirish yoki quyoshni kutish qo‘shiqlari) qadimiy turkiy qatlamga mansub arxaik so‘zlarning saqlanib qolganligi ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu so‘zlar bolalar uchun dastlab semantik ma‘no anglatmasida, ularning o‘yin jarayonidagi sehrli ohangi bolaning xayolot olamini boyitadi. Sinonimiya hodisasi esa ko‘proq “Alla” aytimlarida namoyon bo‘ladi; ona o‘z farzandini erkalash uchun “qo‘zim”, “bo‘talog‘im”, “jigarbandim”, “polvonim” kabi ko‘plab sinonimik birliklarni bir qatorda qo‘llaydi, bu esa bolada tushunchalar o‘rtasidagi nozik semantik farqlarni anglash ko‘nikmasini hosil qiladi [2].

Morfologik sathda esa kichraytirish va erkalash ma‘nosini beruvchi affikslarning (qo‘shimchalarning) o‘ziga xos tizimi ko‘zga tashlanadi. Xorazm shevasiga xos bo‘lgan “-gina,-kina”, “-toy”, “-choq” qo‘shimchalari (masalan: kichikkina, polvontoy, qo‘zichoq) bolalar folklorining deyarli barcha janrlarida emotsionallikni ta‘minlovchi asosiy vositadir. Sanama va o‘yin qo‘shiqlarida kelishik qo‘shimchalarining qisqargan yoki o‘zgargan shakllari (masalan, tushum kelishigining “-ni” shakli o‘rniga “-in” yoki “-i” shakli).





qo'llanilishi xalqona nutqning soddaligi va tabiiyligini saqlab qoladi. Fe'llarning buyruq-istak maylidagi shakllari esa o'yin jarayonidagi harakatlarni boshqarishga, bolaning tezkor qaror qabul qilish va nutqiy reaksiya ko'rsatish qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan [1].

Xulosa qilib aytganda, Xorazm bolalar folklorining lingvistik o'ziga xosligi uning dialektal jozibasi, qadimiy turkiy ildizlari va bolalar dunyoqarashiga moslangan sodda, ammo mazmunli lisoniy tuzilishida ko'rinadi. Fonetik o'yinlar, boy leksik qatlam va o'ziga xos morfologik shakllar tizimi ushbu janrlarni nafaqat badiiy meros, balki o'zbek tili tarixini, dialektologiyasini o'rganishda muhim manba sifatida baholashga asos bo'ladi. Bunday lisoniy boylikni tadqiq etish bolalar nutqini o'stirishning metodologik asoslarini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Ehson S., Mahmudov R., Azatova G., Yusupova S.** *Xorazm xazinası. 1-kitob.* – Xiva-2024.
2. **Jumaniyozov R.** Xorazm shevalari va folklori. – Toshkent, 2005. – 98 b
3. **Madrahimov A.** Xorazm shevalari lug'ati. – Toshkent: Fan, 1991. – 240 b.
4. **Ro'zimboyev S.** Xorazm folklori namunalari. – Urganch: Xorazm, 2012. – 156 b.
5. **Safarov O.** O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 120 b.